

## Ta'mirlash ishlarni amalga oshirish bo'yicha

### ShARTNOMA № K-17

2022 -yil 09-avgust

Farg'ona shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Fargona shahar Maktabgacha ta'lif bo'limi nomidan raxbar N.Irgasheva (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomonidan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "FAR QAYUMJON FAYZI" HK (keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar M.Ablahatov ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

#### 1. ShARTNOMA PREDMETI.

**1.1.** « Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Fargona shahar Maktabgacha ta'lif bulimi tasarrufidagi 27-sonli maktabgacha ta'lif tashkiloti binosini joriy ta'mirlashni loyixa-smeta xujjalarda nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

#### 2. ShARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyixa-smeta xujjalarda nazarda tutilgan tartibda qabul qilib oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bulganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

#### 3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. « Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'lik bajarilgandan so'ng, uzaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. « Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» xisob raqamiga uo'tkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablaglarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

#### 4. IShLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. « Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bulgan ishlar 30 kun muddatda to'lik yakunlanishi kerak.

4.2. « Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatlari bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. « Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yongin xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

#### 5. TOMONLARNI XUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. « Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarni to'liq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. « Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjalarda mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. « Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqkdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablagi va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

#### 6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomoniga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan ta'mirlash belgilangan muddatlarda boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.05% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. « Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlari o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.04% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Pudratchi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### 7. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshkqa yengib belmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

#### 8. QO'SHIMChA ShARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishivi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmasa sud orqali O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik hujjatlari tartibda hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g'aznachilik bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### 9. TOMONLARNI HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

##### Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Pudratchi»

“FAR QAYUMJON FAYZI” xususiy korxonasi

Manzil:Fargona shahar A.Navoiy ko'chasi 41b/34 uy

Tel./Faks +998 91 123 10 57

x/r 20 208 000 600 803 142 001

«Buyurtmachi»

Fargona shaxar Maktabgacha ta'lim  
bo'limii

Manzil: Fargona shaxar Nurafshon  
ko'chasi 15uy

Tel./faks 73 244 91 88

Shhv 100022860304017091100251065

Bank nomi “Turon bank”Farg'ona bo'limi

Tashkilotning STIRi 305153264

MFO 00498 STIR 305074600 IFUT(okonx)

IFUT(okonx) 85100

Farg'ona shaxri bo'yicha G'aznachilik  
bo'linmasi

x/r 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar  
Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi  
(HKKM)

MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining

STIR: 201122919

Buyurtmachi rahbari

N.Irgasheva

(lavozimi)  
(F.I.O.)

Rahbar  M.Ablahatov

M.Ablahatov

(lavozimi) (F.I.O.)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA  
HUQUQIY HULOSA  
№ GU0766758776**

1. Loyihaning turi: shartnoma
2. Loyhaning nomi: “Far Qayumjon Fayzi” xususiy korxonasi tomonidan Farg‘ona shahar 27-sonli DMTTda 74 650 000 (yemish to’rt million olti yuz ellik ming) so‘m qiymatdagi joriy ta’mirlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha
3. Loyerha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:  
Farg‘ona shahar Maktabgacha ta’limi bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan, kamchilik mavjudligi uchun rad etilgan, kamchilik bartaraf etilib “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim qilingan
4. Loyerha bo‘yicha taklif:  
Loyerha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra

**HULOSA:**

Loyerha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**Sh.Musayev**



05.08.2022 йил

Фарғона шаҳри

Фарғона шаҳар 27-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш учун 22110012125378-сонли лот бўйича эълоннинг 28.07.2022 йил кунги электрон баённомаси мухокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси  
**БАЁННОМА ХУЛОСАСИ**

1. Фарғона шаҳар 27-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш учун маҳаллий бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Фарғона шаҳар 27-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш мақсадида амалга оширилиши лозим бўлган ишлар юзасидан 28.07.2022 йил куни қабул қилинган танлов комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларини баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги (ЎРҚ-684-сон) Конуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандларига асосан etender.uzex.uz маҳсус ахборот порталидаги 28.07.2022 йил куни тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик мухокама вақтида хеч қандай эътиrozлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада ғолиб деб топилган FAR QAYUMJON FAYZI XK билан белгиланган тартибда 74 650 000 (Етмиш тўрт миллион олти юз эллик минг) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

Х.Акбаров

Ш.Абдулазизов

А.Хомедов

Н.Худоёрова

Котиба:

Н.Каримбердиева